



## O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL TRANSPORTINING SHAKLLANISHI VA HOZIRGI HOLATI

**Bozorov Mansurjon Ismoil o'g'li**

*Termiz davlat universiteti Geografiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich 120- guruh talabasi*

**Do'smuhammadov Bunyod Otabek o'g'li**

*Termiz davlat universiteti Geografiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich 120- guruh talabasi*

**Qobilova Muhlisah Bahrom qizi**

*Termiz davlat universiteti Geografiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich 120- guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida transport tizimining muhim qismi bo'lgan avtomobil transportining rivojlanishi va hozirgi holati to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Avtomobil transporti, "Volga", Yevropa-Osiyo transport koridori, avtomagistral, "O'zbekiston avtotransporti", "O'zbekiston avtomobilchisi", Buyuk ipak yo'li, "BelAZ", Yuk va yo'lovchi tashish tizimi.

O'zbekistonda avtomobil transporti XX asr boshlarida paydo bo'ldi, unga qadar otulov asosiy transport vositasi bo'lgan. Dastlabki avtobus qatnovi 1906-yilda Farg'ona – Marg'ilon marshrutida yo'lga qo'yilgan. Toshkentda birinchi avtobus 1909-yil dekabrda qatnay boshladi, 1910 yil chet ellarda ishlab chiqarilgan 8 ta kichik va 1 ta 40 o'rinli avtobus ishladi. 1921-yilda avtomobil transporti ixtiyorida 40 ta yengil va 15 ta yuk avtomobili hamda Toshkent avtomobil ta'mirlash ustaxonasi bo'lgan. 1930-yillarda Avtomobil transporti rivojlanishi bilan qattiq qoplamali yo'llar qurilishi boshlandi, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish korxonalari, kadrlar tayyorlaydigan o'quv yurtlari ochildi. 1939-yil 25-iyulda O'zbekiston Avtomobil transporti xalq komissarligi tashkil etildi. 1950-yillarda avtotransportda yuk va yo'lovchilar tashish o'sdi. 1960–80-yillarda respublikada avtotransport vositalarining tur tarkibi ko'paydi.

1991 yilga qadar O'zbekiston xalq xo'jaligida asosan Rossiya ("ZIL", "Moskvich" – Moskva shahri; "GAZ" yuk va "Volga" yengil avtomobillari – Nijniy Novgorod shahri; "KamAZ" – Naberejniye Chelni shahri; "Jiguli" – Tolyatti shahri; "UAZ" – Ulyanovsk shahri; "Ural" – Chelyabinsk viloyati; Miass shahri; "PAZ" – Pavlovo shahri), Ukraina ("LAZ" – Lvov shahri; "KrAZ" – Kremenchuk shahri; "ZAZ" – Zaporozhe shahri), Belarus ("MAZ" – Minsk shahri; "BelAZ" – Jodi-no shahri), Gruziya ("KAZ" – Kutaisi shahri) respublikalarida ishlab chiqarilgan yuk va yengil avtomobillari, avtobuslari ishlatildi.

O'zbekiston Respublikasining yuk mashinalari saroylarida vazifasiga ko'ra ixtisoslashtirilgan (o't o'chirish, un, paxta, don, qurilish materiallarini tashish, sanitariya va boshqalar) avtomobillar bor. Respublikada xalq xo'jaligining sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, suv xo'jaligi, aloqa, savdo, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jaligi, madaniyat, mudofaa va boshqa tarmoqlarida ixtisoslashtirilgan yirik avtotransport korxonalari mavjud.



Ular vazifasiga ko'ra umumiy foydalanilmaydigan ichki ishlab chiqarish avtomobil transportiga kiradi. O'zbekiston Respublikasida yo'lovchilar tashishga mo'ljallangan 14,7 ming avtobus, 5 mingdan ko'proq yengil taksi mashinalari ishladi. Respublika bo'yicha 2892 avtobus marshrutlarida (jumladan 593 ta shahar, 1768 ta shahar atrofi, 532 ta shaharlararo, 142 ta xalqaro) avtobuslar qatnadi. Avtobuslar bilan har kuni 5 mln ga yaqin yo'lovchi tashiladi, 27 ta avtovokzal, 120 ta avtostansiya xizmat ko'rsatadi. Faqat shaharlardagi avtobus marshrutlarida turli markadagi 3 mingga yaqin avtobus qatnaydi.

1996-yilda O'zbekiston Respublikasida jami transport turlari yuk oborotining 28,9% Avtomobil transporti hissasiga to'g'ri keldi, yuk oboroti 8135,3 mln.t km, tashilgan yuk 733,2 mln.t, 1 t yuk tashishning o'rtacha masofasi 10,1 km bo'ldi; avtobuslarda 22779 mln. yo'lovchi, yengil taksilarda 62,7 mln yo'lovchi tashildi. O'zbekiston xalq xo'jaligi tasarrufida turli maqsadlardagi va markadagi 199,7 ming yuk avtomobillari (uning 55 mingdan ortiqrog'i o'zi ag'daruvchi), 35,4 ming avtobuslar, 45,9 ming yengil avtomashinalar xizmat ko'rsatadi (1995). 90-yillar boshidan aholiga yengil avtomobillardan tashqari yuk avtomobillari hamda avtobuslarni sotib olishga ruxsat berilishi natijasida shaxsiy avtotransport soni va tur tarkibida ham jiddiy o'sish kuzatildi. Respublikada fuqarolarning mulki bo'lgan va mamlakatda hamda chet ellarda ishlab chiqarilgan 788,2 ming yengil, 16,9 ming yuk avtomobillari, 2,6 ming avtobuslar, 419,1 ming mototransport (mototsikl, motoroller va boshqalar) vositalari bor (1995). 1996 yilda O'zbekistonning har 1000 aholisiga 43 ta yengil avtomobil to'g'ri keldi (ulardan 39 tasi shaxsiy foydalanishda). Umumiy foydalaniladigan yuk va yo'lovchilar tashuvchi Avtomobil transportining yirik korxonalari "O'zavtotrano davlat-aksiyadorlik korloratsiyasi (1993) tarkibiga kiradi (respublika yuk avtoparkining 14%, avtobus parkining 46,8%; 1999). Tarmoq korxonalari uchun texnik xodimlar 12 mutaxassislik bo'yicha Toshkent avtomobil va yo'llar instituti (1972) da, Qo'qon (1945), Nukus (1965), Buxoro (1969), Urganch (1981), Toshkent (1986) avtomobil va yo'llar texnikumlarida tayyorlanadi. Avtomobil transportining nazariy-amaliy masalalari, ilg'or texnologiya va fan yutuqlari targ'iboti "O'zbekiston avtotransporti" jurnal (1993; rus tilida), "O'zbekiston avtomobilchisi" (1990; o'zbek va rus tillarida) gazetalarida yoritiladi.

Kelajakda avtomobil transportining ravnaqi "Buyuk ipak yo'li"ning tiklanishi, ishga tushishi bilan bog'liq. O'zbekiston bu yo'l qurilishida faol ishtirok etmoqda (Andijon-O'sh-Ergashtom-Qashqar). O'tgan davrda qariyb 500 kilometrlik to'rt polosali zamonaviy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi. Shundan 163 kilometri sement-beton va 335 kilometri esa asfalt-beton bilan qoplangan yo'llardir. Uzunligi 116 kilometr bo'lgan Guliston-Ohangaron avtomobil yo'li, Qo'qon shahrini aylanib o'tadigan avtoyo'l foydalanishga topshirildi, Samarqandni Toshkent, Qarshi va Olot shaharlari bilan bog'laydigan yo'llar rekonstruksiya qilindi. Yuqorida aytganimizdek mamlakat iqtisodining rivojlanish omili bu xalqaro va respublika darajasidagi yo'llar sifatiga bog'liqdir. Shu sababli hukumatimiz tomonidan ana shunday yo'llar qurilishi va mavjud yo'llarni rekonstruksiya qilish uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 apreldagi PQ-1103- sonli "2009-2014 yillarda



O'zbek milliy avtomagistralini qayta qurish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2010 yil 21 dekabrda PQ-1446- sonli "2011-2015 yillarda infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida"gi qarorlari asosida qarib 2100 25 km xalqaro miqiyosdagi avtomobil yo'li rekonstruktsiya qilinmoqda va yangitan qurilmoqda. Yuqoridagi qaror asosida qurilayotgan ushbu yo'lga Milliy magistral maqomi berilgan bo'lib, uning bir qismi E-40 deb nomlanuvchi Yevropa-Osiyo transport koridoriga to'g'ri keladi. Ushbu yo'lning xalqaro ahamiyati benihoyat kattadir. Binobarin, ushbu yo'l Qo'ng'iroq orqali Rossiyaga va boshqa Sharqiy Yevropa mamlakatlariga borish uchun yaqin va qulay yo'lga aylanadi. Sharq tomonda mazkur magistral O'sh-Qashqar avtoyoli bilan ulanib, Xitoy Xalq Respublikasida Buyuk ipak yo'li bo'ylab qurilayotgan tezyurar avtoyoli bilan ulanadi. G'arb va janub tomonda Hind yarimoroli, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq, g'arbiy Yevropa mamlakatlarini bog'lab turuvchi mavjud yo'llar, hamda kelajakda qurilajak yo'llar bilan bog'lanadi. Natijada O'zbekiston milliy avtomagistrali Yevrosiyo transport ko'prigining zamonaviylashtirilgan muhim bir qismiga aylanadi. Shuning bilan birga u O'zbekistonning salohiyatini oshirishda, boyligini ko'paytirishda va xalqaro aloqalarda uning ahamiyatini kuchaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. 2019-yil 6-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuk va yo'lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Avtotransportning ish natijalari bo'lgan yuk va yo'lovchi tashish ko'rsatkichlar ortib bordi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5647 son Farmoni bilan O'zbekiston avtomobil transporti egentligi negizida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tashkil etildi. Umumfoydalaniladigan qattiq qoplamali avtomobillar yo'llar uzunligi bo'yicha mintaqalar bir-biridan farq qiladi. Tahlillarga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasida mamlakat avtomobil yo'llarining 10 foizi jamlangan. Shuningdek, nisbatan katta ko'rsatkich Samarqand (9,7 %), Toshkent (9,5 %), Farg'ona (9,5 %), Buxoro (9,5 %) va Navoiy (9,0 %) viloyatlariga to'g'ri keladi. 2000- 2021 yillarda mintaqalardagi mavjud avtomobil yo'llari uzunligida deyarli o'zgarish bo'lmadi. Navoiy viloyatida avtomobil yo'llari uzunligi tahlil 26 qilinayotgan davrda 0,3 ming km.ga qisqardi. Aksincha, Buxoro viloyatida esa bu davrda yo'llar uzunligi 0,3 ming km.ga ortdi. Mintaqalar bo'yicha yuk tashish hajmining eng yuqori ko'rsatkichi bilan Navoiy (27,4 %) va (17,6 %) Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri (11,9 %) alohida ajralib turadi. Shuningdek, nisbatan katta ko'rsatkich Farg'ona (7,3 %) viloyatiga to'g'ri keladi. Ma'lumki, bu mintaqalarda sanoat yaxshi rivojlangan. Shuning uchun ham barcha jo'natilgan yuklarning katta qismi mazkur mintaqalarga to'g'ri keladi. Yuk tashish hajmining eng past ko'rsatkichlari esa Sirdaryo (1,1 %), Jizzax (2,3 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (2,7 %) kuzatiladi. Aytish joizki, bu mintaqalarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi ham juda past (3 % ga ham yetmaydi). Bunday holat yuk tashish hajmida ham yaqqol sezilib turadi. 1990-2021 yillarda O'zbekiston avtomobil transportida yuk tashish hajmi 174,1 % ga ortgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Toshkent shahri hamda Namangan viloyatida respublika



o'rtacha darajasidan yuqori bo'ldi. Ushbu davrda Jizzax, Sirdaryo va Qashqadaryo viloyatlarida yuk tashish hajmi pasaydi. Qolgan barcha mintaqalarda esa o'sish kuzatildi. So'nggi o'n yillikni (2010-2020 yy.) tahlil etadigan bo'lsak, ushbu davrda respublikaning barcha mintaqalarida avtomobil transportida yuk tashish aylanmasi sezilarli darajada ortgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. „Transport geografiyasi” A.A.Isayev Toshkent „Mumtoz”2019
2. „Transport geografiyasi” A.Choriyev Termiz-2018
3. „O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy Geografiyasi” A.Soliyev Toshkent-2014
4. „O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” (O'quv-uslubiy qo'llanma)  
A.Mavlonov Buxoro-2008
5. “Iqtisodiy geografiya” O.L.Muxamedov Samarqand-2021